

**OILAVIY TARBIYANING MUHIM PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
JIHATLARI**
**ВАЖНЫЕ ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ
СЕМЕЙНОГО ВОСПИТАНИЯ**
**IMPORTANT PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF
FAMILY EDUCATION**

JDPI maktabgacha ta'lim kafedrası

katta o'qituvchisi Xamidova Gulbahor

Balliboyeva Sojida zfarobod tumani 1-sonli MTT

Annotatsiya: Oilada bola tarbiyasi uchun ota-onaning mas'uliyati alohida e'tiborga molik hisblanadi. Bola tarbiyasini tug'ilmasidanoq boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu fikrni bir qator Sharq mutafakkirlari ham ta'kidlab o'tishgan. Bolani tarbiyalash uchun, avvalo ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak. Faqatgina ham jismonan, ham ma'nan sog'lom ota-onadan sog'lom farzand dunyoga keladi.

Аннотация: Особое внимание уделяется ответственности родителей за воспитание ребенка в семье. Начинать воспитание ребенка желательно будет с самого рождения. На эту мысль указывал и ряд восточных мыслителей. Чтобы воспитывать ребенка, прежде всего, необходимо, чтобы воспитывался сам родитель. Только от физически и духовно здоровых родителей рождается здоровый ребенок.

Abstract: Special attention is paid to the responsibility of parents for raising a child in the family. It will be desirable to start raising a child from birth. A number of Eastern thinkers also pointed to this idea. To raise a child, first of all, it is necessary that the parent himself be brought up. Only physically and spiritually healthy parents give birth to a healthy child.

Kalit so'zlar: bolalar, o'yin, tasavvur, fikrlash, bolaning sog'lom o'sishiga, odob-axloqli, do'stlik, inoqlik, o'zaro hurmat.

Ключевые слова: дети, игра, воображение, мышление, способствуют здоровому росту ребенка, воспитывают хорошие манеры, дружбу, нежность, взаимоуважение.

Keywords: children, play, imagination, thinking, contribute to the healthy growth of the child, foster good manners, friendship, tenderness, mutual respect.

Har bir oila farzandlarining barkamol ulg'yib o'sishi uchun oila, mahalla va maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligida ma'suldirlar. Oilada bola tarbiyasi uchun ota-onaning mas'uliyati alohida e'tiborga molik hisblanadi. Bola tarbiyasini tug'ilmasidanoq boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu fikrni bir qator Sharq mutafakkirlari ham ta'kidlab o'tishgan. Bolani tarbiyalash uchun, avvalo ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak. Faqatgina ham jismonan, ham ma'nan sog'lom ota-onadan sog'lom farzand dunyoga keladi. Farzand tug'ilgan kundan boshlab dastlab oila muhitida tarbiyalanadi. Bu davrda bolani to'g'ri ovqatlantirish, to'g'ri parvarish qilish juda muhim. Bir yoshgacha bo'lgan davrda bola o'ziga yaqin kishilarni ko'rganda xursand bo'ladi, rangdor o'yinchoqlarni xush ko'radi. Bu davrda bolani alla, ma'noli erkalashlar, chiroyli o'yinchoqlar orqali tarbiyalab borish lozim. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar esa turli o'yinchoqlarni o'ynay boshlaydilar, asta-sekin nutqi rivojlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o'yin orqali bir-birlari bilan aloqa bog'laydilar, tasavvur, fikrlash jarayoni shakllanadi.¹ Bu vaqtdan boshlab bolalarga do'stlik, inoqlik, o'zaro hurmat, bir-biriga yordam tushunchalarini sodda qilib tushuntirib borish ahamiyatlidir. Bolalar bu davrda eshitgan narsasini takrorlashga urinadilar, shu sababli bu davrda kattalarning ma'nili so'zlashuvi, yurish-turishi, odobi, o'zaro ahilligi, mehribonligi bola ruhiyatiga ta'sir etadi. Ota-ona yoki tarbiyachilarning bolalarni sevishi, ularning xatti-harakatiga ziyraklik va mehribonlik bilan munosabatda bo'lishi, bolaning sog'lom o'sishiga, odob-axloqli bo'lishiga olib keladi. Bolani lozim bo'lganda maqtash, diqqatini ijobiy faoliyatga tortish, yomon ishlardan ehtiyot bo'lishini uqtirish, axloqsiz so'z va gaplardan uzoqroqda bo'lishini ta'minlash, o'rtoqlari bilan urishmaslik yo'llarini o'rgatish – ularga axloqiy tarbiya berishda ijobiy ta'sir hisoblanadi.

O'zbek xalqining milliy qadriyatlari, milliy madaniyati o'z ona tilini tiklash bo'yicha hamma millatparvar xalqimiz baxoli qudrat xarakter qilayotgan bir davrda xar bir ota – onaning bola tarbiyasini va rivojlanishi haqidagi ilmiy pedagogik bilimlarini takomillashtirish davr

¹ G'aybullaev N. va b. Pedagogika (ma'ruza matni). Toshkent: 2000. 26-bet.

taqozosidir. Bunday dolzarb murakkab ish maktabgacha tarbiya muassasalari bilan oila amalga oshiradigan yagona, yaxlit tarbiya tizimi mavjud bo'lgandagina ijobiy natija beradi.

Bunday tarbiya tizimini yaratish yolg'iz bir olim, pedagogik, ota – ona yoki maktabgacha tarbiya muassasasining fikri yoki ishi bilangina bo'lishi mumkin emas.

Fikrimizcha, bu borada o'zbek va sharq mutafakkirlarining bolaga yaxshi tarbiya berish, odamiylik, ilm olish, odob axloqqa o'rgatishga chorlovchi fikrlari bilan birgalikda islom dinida Qur'oni Karimdan so'ng turuvchi xadisimizning insoniylikning tarbiyalashga doir ko'rsatmalari asos qilib olinishi oldimizga qo'yilgan maqsadga erishishda anchagina yordam bergan bo'lar edi.

Davlatimizning kelajagi-bugungi yosh avlodning qay darajada iqtidorli, salohiyatli, qat'iyatli va ayniqsa, qonunlarni hurmat qiluvchi, huquqiy jihatdan savodli insonlar bo'lib etishishlariga bog'liq ekan albatta ularga bilim berayotgan pedagog xodimlarning o'zlari ham yuqori intellekt egalari bo'lishlari talab etiladi. Chunki pedagoglar nafaqat bolalarga, balki ularning ota-onalariga, qolaversa, keng jamoatchilikka ham o'z bilim va iqtidorlari orqali katta ta'sir ko'rsatadilar.

Oila-ijtimoiy, tabiiy omillar asosida shakllangan kichik jamoa sifatida ikki jinsga mansub bo'lgan shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning birga hayot qurib nasl qoldirish, faqat farzandni dunyoga keltirish emas, balki ularni ma'naviy va jismoniy kamol topdirib, hayotga mustaqil qadam qo'yishiga sharoit yaratishdir. Oila asli arabcha so'z bo'lib, "ayolmand, niyozmand", "er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui, xonadon" degan ma'noni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat–engilmas kuch» asarida yoshlarda yuksak ma'naviyatni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha keng jamoatchilik, ayniqsa, siyosiy partiyalar oldiga qator vazifalar qo'yilgan. Bu, birinchi navbatda, yoshlarning ma'naviy tarbiyasida oila, mahalla va ta'lim muassasalari, barcha ijtimoiy davlat va nodavlat institutlarining amaliy uyg'un hamkorligiga erishish, ular orasida ma'naviy-g'oyaviy hamjihatlik ruhini yanada mustahkamlash va yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish vazifalaridir.

Milliy tarbiyaning manbai - milliylik! «Millat», «milliylik», «milliy g'urur», «milliy odob», «millat-lararo muloqot madaniyati» tushunchalarining o'zagini arabcha «mil» so'zi tashkil qiladi. Bu so'z arabchada «o'zak», «tub mohiyat», «negiz» ma'nolarini anglatadi.

«Millat» soʻzi esa bir necha maʼnoni: 1) din: mazhab; 2) ummat: bir mazhabga mansub aholi; 3) xalq maʼnolarini anglatadi.

«Millat», «milliylik» tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ularning gʻarbona va sharqona tarzlari bor ekanligini koʻramiz. Aniqrogʻi, gʻarbiy talqii xristian, sharqiy talqin esa islomiy oʻzaklarga boʻrib tutashadi. Yaʼni Ovrupo xalqlari tillariga «millat» tushunchasi lotincha «paio» - qabila, xalq sifatida xristian dini bilan birga kirib ksilgan boʻlsa, Osiyoga esa islom taʼlimoti orqali yuqoridagi uch xil maʼnoda ki-rib kelib singdi.

«Tarbiya» soʻzi «milliy tarbiya» tushunchasining tarkibiy qismi boʻlganligi tufayli bu tushunchaga ham yan-gicha yondoshgan hodda, xolis ilmiy-pedagogik taʼrif ber-moq kerak. Arabcha «tarbiya», «tarbiyat» soʻzlari 1) parvarish qilmoq; taʼlim bermoq; oʻrgatish; odob oʻrgatish; 2) navozish, mehribonlik koʻrsatish: koʻz-quloq boʻlish; himoya qilish kabi koʻp qirrali mazmunga ega. «Tarbiyachi» esa shu koʻp qirrali tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi odam, demakdir. Demak, milliy tarbiyaning lugʻaviy maʼnosini «yosh avlodlarni oʻz xalqiga xos milliy fazilatlar namunasida shakllantirish, taʼlim bermoq» sifatida aniqlash mumkin.

Mamlakatimizda oila, onalik va bolalaikni ijtimoiy muhofaza qilish davlatimiz siyosatining qilish davlatimiz siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri ekan u quyidagi asosni yoʻnalishlarni oʻz ichiga qamrab oladi:

- oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, oila manfaatlarini huquqiy himoya qilinishini taʼminlash, onalik va bolalik huquqlarini muhofaza qilish;
- oilaning ijtimoiy manfaatlarini taʼminlash uchun shart - sharoitlar yaratish oila aʼzolarining sogʻligini muhofaza qilish va taʼlim darajasini oshirish uchun shart - sharoitlarni yaxshilash;
- oilaning iqtisodiy manfaatlarini taʼminlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oilani daromadlarini, oila aʼzolarining ish bilan taʼminlash darajasini oshirish, roʻzgʻor yumushi va turmush sharoitlarini yaxshilash kam-taʼminlanish oilalarga davlat tomonidan, qoʻllab-quvvatlash;
- oilani maʼnaviy axloqiy asoslarini va maʼdaniy manfaatlarini taokmillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- oilaning sogʻlom aql-zakovatli yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirish har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalashdagi oila va jamiyatning vazifalarini taokmillashtirish;

- oila muammolarini milliy va ijtimoiy tadqiq etish, oila, xotin-qizlar va bolalarning iqtisodiy-ijtimoiy ahvolini ko'rsatuvchi statistika hisobotini to'plash va takomillashtirish.

Mamlakatimizda adolatlar, huquqiy demokratik jamiyat qurish jarayoni shaxdam qadamlar bilan borayotgan bir sharoitda qonun ustuvorligini ta'minlash zamirida oila a'zolarini huquqiy madaniyatini shakllantirish oila manfaatlarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanib qoldi. Totalitar tuzum davrida respublikamizda sharqona qadriyatlar asosida oilani barpo etish, shakllantirish va barqarorligi ta'minlashga yetarli e'tibor berilmadi. Oilani jamiyatning asosiy yachekasi sifatida har tomonlama muhofaza etish masalasi davlat siyosati darajasiga kutarilmadi.

Inson kamolotining ko'rinishlaridan biri-obro'-tiborga ega bo'lishdir. Obro' bir kun yoki bir yoil mobaynida hosil bo'ladigan jarayon emas, obro' inson hayoti mazmunidagi faoliyati jarayonida asta-sekin shakllanib boradi. Ota-naning oiladagi obro'si tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Obro' oilaviy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Ma'naviy ahloqiy hislatlarni, zamon ruhiga mos tushadigan fazilatlarni shakllantirishga qaratiladi. Mazkur toifadagi oila a'zolari davrasidagi suhbatlar, munozaralar, bahslar mulohazalar o'zaro tenglik, hurmat ruhiga bo'ysundiriladi. Oilaviy munosabatlarning ushbu ko'rinishidagi turli yoshdagi, jinsdagi bolalarga maqsadga muvofiq tarbiyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyati muvjuddir. Oila munosabatning yana bir turi "avtoritar" yoki "obro'talab" munosabat deb atalib, bunda ota-naning obro'si shaxslararo teng huquqlik, erkin hatti harakat qilish, tashabbuskorlik bunda o'z ahamiyatini yo'qota boshlaydi.

Xulosa

Shu boisdan pedagogik- ruhiyat qonun-oidalariga rioya qilingan holda ota-onalar tarbiya prinsiplari, usullari vositali bilan qurollangandagina haqiqiy nazokatga va odobga erishish mumkun. Bu narsa ulardan chuqur izlanishlarni talab qiladi. Oilada farzandlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning iltimos, maslahat, ishontirish, talab qilish buyruq va tanbeh berish, jazolash, rag'batlantirish singari qator usullarni o'z o'rnida va miyyorida foydalanilmasa ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Mezon tuyg'usi va me'ryo hissiga amal qilish ota-ona ruhiy dunyosiga ma'naviyatiga singib borsa u holda farzandlaridan uzoqlashishi, begonalashish, bordi-keldiga borish, anglashilmovchilik g'ovuni vujudga kelishi, bachkanaashish, badjahllik, asab burzarlik xulq-atvori namoyon bo'lmaydi. Oilaviy turmushda farzand kamol topishini to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy vositasi bolada e'tiqodni shakllantirishdir. Bunga bolani faqat ishontirish yo'li bilan amalga oshirsa bo'ladi. shuning

uchun ota-ona farzandlarini voyaga yetkazishda ularni ko'r qilishga yoki asosiy buyruq berishga tayanmasligi kerak. Xush ota-ona obro'si farzandlarda qachon paydo bo'ladi.

Oilaviy turmush tajribalaridan shu narsa ma'lumki, ota-onaning obro'si davlat va oila a'zolari oldida javobgarlikni his-qilishdan boshlanadi. Mabodo ota-ona o'z ishi, o'z burchi uchun javobgar ekanligini tasavvur qila olsa va unga amaliyotda rioya qilsa, mana shu narsa ularning obro'-e'tibor qozonish uchun asosiy zamin hisoblanadi.

Asosiy adabiyotlar

1. P.Yusupova Maktabgacha tarbiya pedagogika 2013
2. J.Xasanboeva. Pedagogika 2006
3. O.Xasanboeva "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi". Toshkent. "ILM ZIYo" qo'llanma-2016yil
4. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish".-Toshkent-2015yil
- 5.Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari . – T.: 2012 yil.
- 6.Yo'ldoshev,C.A.Usmonov "Pedagogik texnologiya asoslari"Toshkent 2011 yil

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2016. - 56 b.